

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ASSIMILYATSIYA HODISASINING QIYOSIY TAHLILI

Kudratova Sitora Rashidovna

E-mail: kudratova.s96@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21849767>

Annotatsiya: Mazkur tezis ingliz va o'zbek tillarida assimilyatsiya hodisasining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotda ushbu fonologik jarayonning yuzaga kelish xususiyatlari, o'xshash va farqli jihatlari hamda uning nutqdagi ahamiyati yoritiladi. Olingan natijalar qiyosiy fonetika va fonologiya bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni boyitishga hamda ingliz tili talaffuzini o'qitish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: assimilyatsiya, fonologik jarayonlar, qiyosiy tahlil, ingliz tili, o'zbek tili.

Abstract: This thesis is devoted to a comparative analysis of assimilation in English and Uzbek. It examines the characteristics of this phonological processes, its similarities and differences, as well as its role in speech. The findings of the study contribute to comparative phonetic and phonological research and provide a theoretical basis for improving the teaching of English pronunciation.

Keywords: assimilation, phonological processes, comparative analysis, English, Uzbek.

Kirish. Fonologiya – bu tovushlar tizimi hisoblanib, tovushlar nutqda bir-biriga ta'sir etishi natijasida turli fonologik o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Bunday o'zgarishlar ichida assimilyatsiya (o'xshashlashish) hodisasi alohida ahamiyatga ega.

Assimilyatsiya — bu tovushlarning qo'shni tovushlar ta'sirida ularga o'xshash yoki ular bilan bir xil xususiyatlarga ega bo'lib borish jarayonidir. Ingliz tilida assimilyatsiyaning quyidagi turlari mavjud:

Progressiv assimilyatsiya (*progressive assimilation*), shuningdek **kechikuvchi assimilyatsiya** (*lagging assimilation*) yoki **saqlanuvchi assimilyatsiya** (*perseverative assimilation*) deb ham ataladi. Bu **chapdan o'ngga** yo'nalgan assimilyatsiya jarayoni bo'lib, unda keyingi tovush o'zidan oldingi tovush ta'sirida unga o'xshash xususiyatni qabul qiladi. Quyidagi misollar progressiv assimilyatsiya hodisasini yaqqol namoyon etadi. Masalan,

on the house [ɒn ðə 'haʊs] → [ɒn nə 'haʊs]

dogs → [dɒgz] – The /s/ sound changes to /z/ because of the voiced /g/ before it

Regressiv assimilyatsiya (*regressive assimilation*), shuningdek **oldindan ta'sirlanuvchi assimilyatsiya** (*leading assimilation* yoki *anticipatory assimilation*) deb ham ataladi. Bu **o'ngdan chapga** yo'nalgan assimilyatsiya jarayoni bo'lib, unda bir tovush o'zidan keyin keladigan qo'shni tovush ta'sirida unga o'xshash xususiyatni qabul qiladi. Bunga misol tariqasida quyidagi so'zlarni ko'rishimiz mumkin.

good cook [gʊd kʊk] → [gʊk:ʊk]

input → ['ɪmpʊt] – The /n/ sound changes to /m/ before the /p/ sound

Koalescent assimilyatsiya (*coalescent assimilation*), yoki **o'zaro assimilyatsiya** (*reciprocal assimilation*), ikki tovushning o'zaro ta'sirlashuvi natijasida **birlashib, mutlaqo yangi tovushni hosil qilishi** bilan tavsiflanadigan fonologik jarayondir. Bu hodisada ikkala tovush ham o'zining dastlabki xususiyatini qisman yo'qotadi va natijada yangi artikulyatsion birlik yuzaga keladi. Quyidagi misol ingliz tilidagi **bog'langan nutqda** (**connected speech**) koalescent assimilyatsiyaning qanday namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

raise your voice ['reɪz jɔ: 'vɔɪs] → ['reɪz ʒɔ: 'vɔɪs]

don't you → [dəʊntʃu] - The /t/ and /j/ sounds merge into /tʃ/

O'zbek tilida esa tovushlar moslashuvining progressive, regressive, kontakt va distant assimilatsiya turlarini ko'rishimiz mumkin.

Progressiv assimilatsiya - oldingi tovushning keyingi tovushni o'ziga moslashtirishi:

ketdi → ketti (td → tt)

ekgan → ekkan (kg → kk)

qishloqqa → qishloqqa (qg → qq) kabi;

Regressiv assimilatsiya - keyingi tovushning oldingi tovushni o'ziga moslashtirishi:

tuzsiz → tussiz (zs → ss)

birta → bitta (rt → tt) kabi;

Kontakt assimilatsiya - yonma-yon joylashgan tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan fonetik hodisa:

tanbur → tambur (nb → mb)

shanba → shamba (nb → mb) kabi.

Ushbu misollarda /n/ tovushi keyingi /b/ undoshining ta'sirida artikulyatsiya o'rniga ko'ra /m/ tovushiga moslashadi.

Distant assimilatsiya - orasida bir yoki bir nechta tovush mavjud bo'lgan tovushlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan assimilyatsiya. Bu hodisa adabiy o'zbek tilida kam uchraydi, biroq ayrim shevalarda kuzatiladi:

sichqon → chichqon

soch → choch kabi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, assimilyatsiya ingliz va o'zbek tillarida keng uchraydigan fonologik jarayonlardan biri bo'lib, nutqning ravonligi va talaffuzning qulayligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Har ikki tilda ham tovushlar qo'shni tovushlar ta'sirida o'z artikulyatsion xususiyatlarini o'zgartirishi kuzatiladi, biroq bu jarayonlarning namoyon bo'lishi va qo'llanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ingliz tilida assimilyatsiya asosan progressiv, regressive va koalescent shakllarda, ayniqsa bog'langan nutqda (connected speech) faol qo'llaniladi. O'zbek tilida esa progressiv, regressive, kontakt va distant assimilyatsiya turlari uchraydi hamda ular ko'proq so'z tarkibidagi tovushlarning fonetik moslashuvi bilan bog'liq. Qiyosiy tahlil natijalari ingliz va o'zbek tillarida assimilyatsiya hodisasi umumiy fonologik qonuniyatlarga asoslanganligini, ammo uning amalga oshish mexanizmlari va qo'llanish doirasi turlicha ekanligini ko'rsatadi. Ushbu xususiyatlarni o'rganish nafaqat nazariy fonetika va fonologiya, balki ingliz tili talaffuzini o'qitish metodikasini takomillashtirishda ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Alameen, G., & Levis, J. M. (2015). Connected speech. In M. Reed & J. M. Levis (Eds.), The handbook of English pronunciation (pp. 159–174). John Wiley & Sons. <https://doi.org/10.1002/9781118346952.ch9>
2. Blevins, J., & Garrett, A. (2004). The evolution of metathesis. In B. Hayes, R. Kirchner, & D. Steriade (Eds.), Phonetically based phonology (pp. 117–156). Cambridge University Press. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511486401>
3. Warner, N. (2021). Processes in connected speech. In R.-A. Knight & J. Setter (Eds.), The Cambridge handbook of phonetics (pp. 133–156). Cambridge University Press.
4. Bozorov, M. (2005). O'zbek tilining fonetikasi. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

5. Yusufov, A. (1997). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.